

MAKTAB VA LITSEYLAR HUDUDINING LANDSHAFT DIZAYNI

Adilova Nazokat Himmatovna

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "kadrlar tayyorlash dasturi"da o'quv-tarbiya mazmuni va sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, yuksak, kasbiy, ma'naviy va ahloqiy talablarga javob berishi yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash va malaksini oshirish tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Asosiy qism. Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Shu bilan birgalikda 2017 yil vazirlar maxkamasining "Texnik jixatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, o'rta maxsus, kasb-xunar va oily ta'lim muassasalari o'quv xonalarining xavfsizligiga qo'yiladigan yagona talablarni belgilash maqsadida 265-sonli qarorni qabul qildi. Bu qarorda kasb-xunar va oliy ta'lim muassasalari xududlarini ko'kalamzorlashtirishni to'g'ri tashkil etish masalalari xam kiritilgan. Biz shu maqsadda akademik litseylarning namunaviy landshaft dizaynlarini ishlab chiqishni maqsad qildik. Bugungi kunda o'quv yurtlari hududlarining asosiy muammolardan biri – ko'kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishdir.

Kutubhona, yozgi oshhona, sport maydonchalarini ko'kalamzorlashtirish – bu obodonlashtirishning asosiy vositalaridan bo'lib hisoblanadi.

Maktab va litseylar hududlari landshaft dizayni ko'rinishi sifatida biz Ishtixon tumani 46 makyab hududini na'muna sifatida tanladik.

Ushbu maktab maydoni kv.m. bo'lib hududning shimoli g'arbiy tamoni aholi turar joylari bilan o'ralgan. Hududning yer maydoni past balandliklardan iborat bo'lgani uchun yer relefiga mos ravishda landshaft dizayn echimi ishlab chiqildi. Landshaft dizayn yechimlarida asosan yarim aylana, doira va to'g'ri shakllardan foydalanildi. Bundan tashqari turli o'simliklar, tabiiy toshlar bilan ham bezatildi. O'quv binosi orqa tamonida yozgi tamaddi qilish joyi ajratildi. Ammo atrofida soya beradigan daraxtlar ekilmagan. Biz ushbu tamaddi qilish joyiga pergola qo'yilishini hamda atrofida chirmashib o'sadigan glitsiniya turlarini ekishni taklif qildik. Ko'cha tamondan kirish qismida avtoulavlar turar joyi joylashtirish maqsadga muvofiqdir. U yerda mashinalardan chiqqan zaxarli gazlarni tozalash uchun daraxtlar yetarli ekilmagan. Taklifimizda piyodalar, velosipedchilar hamda mashinalar uchun alohida joy ajratilib u yerga kashtan va virgin archalari ekilishi taklif qilindi.

Maktab xududini yashil ekinzorlar bilan bezatishning asosiy vazifalari quyidagicha:

- issiq, chang, zaharli gazlardan va shovqindan himoyalash;
- tanaffus vaqtida talabalarning dam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda biologiya va badantarbiya (fizkultura) mashg'ulotlarini ochiq havoda o'tkazish;
- talabalar ruxiyatiga ijobiy ta'sir etib xududda manzarali ko'rinishlarni yaxshilash.

Yashil ekinzorlar turlari har xil bo'lishi va ular tarkibida ushbu xududda keng tarqalgan, hamda kamyob bo'lgan turlar ekilishi lozim. Zaxarli va tikanakli o'simliklardan



foydalanilmaydi. Landshaft dizayni nafaqat estetik did uchun balki u insonlarga qulaylik ham yaratib bersin.

Maktab va litseylarda, landshaft dizaynining asosiy vazifalardan biri – tabiiy va sun'iy yaratilgan muhit o'rtasida ma'lum muvozanat uyg'unlashuviga erishish, barcha ko'kalamzorlashtirish ob'ektlarining o'zaro bog'liqligi va bir yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi.

O'quv yurtlarida ko'kalamzorlashtirishning muhim jihati – ularni tashkil etishda yashil daraxtlarning tabiiy o'sgan xududlarini hamda badiiy ijod namunalarini bir tizimga birlashtirib, uyg'unlashtirishdan iborat.

Shu bilan bir vaqtda, qishki va yozgi haroratlarning ekstremal (keskin) bo'lishi, havoning past nisbiy namligi va bug'lanishining yuqori darajadali, tuproq va gidrologik sharoitlari, ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llaniladigan daraxt va buta turlarini soni va hajmini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxar va qishloqlardagi akademik litseylar hududida ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarni yaratish va foydalanishdagi agrotexnik talablar va parvarish qilish ishlari Respublikamizning turli tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda bajarishni taqozo etadi. Ayniqsa, daraxt va buta turlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Maktab va akademik litseylar hududida soyalantirish 1 ga yerga 350-400 ta daraxtlar joylashtirish (mo'tadil iqlimli shahar va qishloqlarda 1 ga da 170-200 ta daraxt) bilan amalga oshiriladi. Bunga joyning rel'efi, gidrogeografik tarmog'ini e'tiborga olib havoning turib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Keng yashil hiyobonlar maktab va litsey hududlarida ventilyasiya yo'laklari vazifasini bajaradi.

Daraxtlar barglari o'ziga xos issiqlik xususiyatlariga ega. Turli daraxtlarning barglari o'zidan har xil darajada issiqlik nurini va quyosh spektrini yutib, qaytarishi va o'zidan o'tkazishi mumkin.

Masalan, yosh emanzor quyosh radiatsiyasining – 96,8%, qarag'ayzor – 96%, archa, terak va emanlar aralash o'rmon esa – 97-98% nurlarni ushlab qoladi. Daraxtlarning termohimoyalash funksiyasi shu bilan belgilanadi.

Asfalt va binolar devorlarini to'sadigan, baland bo'yli, qalin gorizontaal birikib o'sgan, pastki qismidan shamol yuradigan yashil ekinlar (daraxtlar) issiqdan yaxshi himoyalaydi. Daraxt va butalar havoning namlik darajasini oshirib, talabalarning salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shamol kuchli esadigan xududlardagi akademik litsey va kollejlarda buning himoyaviy ahamiyati katta.

O'quvbinosi atrofidagi ochiq maydonlarda havo haroratining o'zgarish xususiyatlarini dam olish maydonchalarini rejalashtirishda hisobga olish zarur. Turlarni tanlashda daraxtlarning soyalatish xususiyatlarini inobatga olish tavsiyae tiladi. Masalan, jo'ka va kashtan daraxtlarining soyasi shumtol va oq akatsiyaga nisbatan quyuqroq bo'ladi. O'zbekistonning quruq va jazirama iqlimli sharoitida soyalatish rejimi katta ahamiyatga ega. Yekinzorlarning tuzulishi, kengligi, balandligi va daraxt turlari tarkibi ushbu ko'rsatkichlarga chambarchas bog'liq. Yirik shox-shabbali, tuklangan, g'adir-budir,

notekis bargli daraxt turlari (eman, qayrog'och, tut, zirg, katalpa, sovun daraxti, karkas, chilopsis va b.) havodagi changni yaxshi ushlaydi hamda zaxarli kimyoviy birikmalarni, ayniqsa, karbonat angidridini tortib olib, o'zlashtiradi.

Nina bargli daraxtlar yaproq bargli daraxtlarga nisbatan changni ko'proq ushlab qoladi. Kuz, qorsiz qish va erta bahorda, talabalar turar joylarida chang ko'p to'planganida ninabarglilarning ahamiyati katta, chunki bu vaqtda yaproq bargli daraxtlarning barglari bo'lmaydi.

Maktab va akademik litsey hududiga kirish va asosiy binoning bosh fasadi: Kirish darvozasi mavjud bo'lgan holatlarda litseyning nomi katta harflar bilan lotin alifbosida binoning yuqori qismida yozilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, maktab va akademik litsey emblemasi (logotipi) ni yozuv oldidan joylashtirish mumkin. Muassasalarning nomlarini lotin alifbosida o'zbek tilida va ingliz tilida yozish maqsadga muvofiq.

Maktabning asosiy kirish joylarida rahbariyat va ma'muriyatning qabul qilish jadvali o'rnatilishi talab etiladi. Shuningdek hududdagi bino va boshqa ob'ektlarning joylashish xaritasi, ularga olib boruvchi turli xil yo'naltiruvchi belgilarning bo'lishi tavsiya etiladi.

Bino hududida kirish joyida jamoa madaniyatiga to'g'ri kelmaydigan taqiqlovchi qoida va belgilarni o'rnatish noo'rin sanaladi.


Kirish darvozasidan binogacha bo'lgan yo'laklar: Darvozadan binolargacha bo'lgan bosh yo'laklar atrofiga o'rindiqlar va suhbat ayvonchalarini joylashtirish samara bermaydi.

Asosiy yo'laklar o'rtasida (mavsumiy va ko'p yillik) gullar, butalar ekilishi chiroyli manzara kasb etadi. Baland va noo'rin o'simliklar, mevali daraxtlar ekish tavsiya etilmaydi.

Shuningdek, asosiy yo'laklarda sohaga tegishli mutaxassisliklari bo'yicha tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi shiorlar, buyuk allomalar va fan arboblarning byustlari va haykallarini o'rnatish mumkin.

Yo'laklarning chet qismlariga taniqli far arboblarning hikmatli so'zlari yozilgan targ'ibot vositalarini joylashtirish mumkin.

Suhbat ayvonchalari: Suhbat ayvonchalarining temir va temir-betondan yasalishi maqsadgammuvofiq. Ayvonning keng va ochiq ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi.



Suhbat ayvonchalarining yopiq ko'rinishda va ortiqcha bezakli bo'lishi, yog'och va yog'och mahsulotlaridan qilinishi tavsiya etilmaydi.

O'rindiqlar: O'rindiqlarning mustahkam, chidamli materiallardan hamda hashamatsiz va o'rindiklar suyanchiqsiz bo'lishi tavsiya etiladi.

Suyanchiqli o'rindiqlar faqatgina ota-onalar va mehmonlar uchun ajratilgan kutish joylariga tavsiya etiladi. O'rindiqlarning o'zida yoki yonida gultuvak va axlat chelaklarning bo'lishi o'tirganlarga qulaylik yaratadi. Suyanchiqli va bezakli o'rindiqlar tavsiya etilmaydi.

Binoning tashqi va ichki qismlarida jahon, Osiyo chempionatlari va olimpiada o'yinlari g'oliblari, sport ustalarining suratlari va plakatlari bo'lishi maqsadga muvofiq.



Xulosa. Ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida akademik litseylarda o'qitish sifati va samaradorligini yanada oshirish, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va maqsadli ta'limga yo'naltirish, farzandlarimizning tanlagan mutaxassisliklarni puxta egallashlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga keng imkoniyatlar ochib berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Michael A. Dirr Dirr's Hardy Trees and Shrubs /An illustrated encyclopedia. – Naneteench printing, 2005, Hong Kong. ISBN 0-88192-404-0 292 b.
2. Landscape Architecture an introduction / by Robert Holden and Jamie Liversedge. 361–373 City Road London EC1V 1LR United Kingdom, 2014. ISBN: 978 1 78067 2700–209 b.